

UZBEK REGIONAL PRESS: FROM THE JADIDISM ERA TO DIGITAL TRANSFORMATION

Sadoqat RAKHMATOVA

Teacher

Department of Press Service and Public Relations

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

O'ZBEK HUDUDIIY MATBUOTI: JADIDCHILIK DAVRIDAN RAQAMLI TRANSFORMATSIYAGA QADAR

Sadoqat RAXMATOVA

Stajyor-o'qituvchi

Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar kafedrası

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

УЗБЕКСКАЯ РЕГИОНАЛЬНАЯ ПРЕССА: ОТ ЭПОХИ ДЖАДИДИЗМА ДО ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Садокат РАХМАТОВА

Стажёр-преподаватель

Кафедра пресс-службы и связи с общественностью

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан sad0qat@mail.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Raxmatova S. O'zbek hududiy matbuoti: jadidchilik davridan raqamli transformatsiyaga qadar // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 216-231.

<https://doi.org/10.36078/1762420421>

Received: August 27, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article explores the historical development of Uzbekistan's regional press, tracing its evolution from the era of Jadidism to the contemporary stage of digital transformation. Regional newspapers and journals have played a crucial role in the socio-political life of society, as they represent the interests of local communities, address pressing social issues, and serve as an effective channel of communication between citizens and state institutions. The study identifies four main stages in the development of the regional press: the Jadid period, the Soviet period, the independence period, and the current era of digital transformation. During the Jadid era, the press functioned as an ideological tool of national awakening and enlightenment. In contrast, under the Soviet system, journalism was tightly controlled and primarily served as an instrument of propaganda. With the advent of independence, media freedom expanded, enabling the press to promote democratic values, national ideology, and cultural renewal. In the twenty-first century, the emergence of internet journalism and the rapid spread of social media have fundamentally reshaped regional journalism, providing immediacy, interactivity, and multimedia opportunities. The findings of the study highlight the functional features of regional media — delivering local news, shaping public opinion, promoting cultural and educational values, and ensuring dialogue between society and the state — as highly significant for both media theory and practice.

The research emphasizes that the regional press should be studied not only as part of historical development but also as a relevant phenomenon of modern communication systems. This dual perspective makes it possible to understand the role of regional journalism in the age of globalization and digital transformation, where it functions as both an information source and a platform for democratic participation.

Keywords: regional press; Jadidism; Soviet period; independence; digital transformation; journalism; communication.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek hududiy matbuotining tarixiy taraqqiyoti jadidchilik davridan boshlab hozirgi raqamli transformatsiya bosqichigacha izchil tadqiq etilgan. Hududiy matbuot jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida alohida o'rin egallaydi, chunki u mahalliy aholi manfaatlarini ifoda etish, dolzarb muammolarni yoritish va davlat organlari bilan fuqarolar o'rtasida samarali kommunikatsiya o'rnatishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada hududiy matbuot tarixiy taraqqiyotining to'rt bosqichi — jadidchilik davri, sovet davri, mustaqillik davri va zamonaviy raqamli transformatsiya davri alohida tahlil qilinadi. Jadidchilik davrida matbuot milliy uyg'onish jarayonining mafkuraviy quroli sifatida xizmat qilgan bo'lsa, sovet davrida u mafkuraviy nazorat va senzura ostida faoliyat yuritgan. Mustaqillik yillarida matbuot erkinligi ta'minlanib, demokratik qadriyatlar, milliy mafkura va ma'naviy-ma'rifiy yangilanishni yoritishda muhim rol o'ynagan. XXI asrda internet jurnalistikasi va ijtimoiy tarmoqlarning keng yoyilishi natijasida hududiy matbuot tezkorlik, interfaollik va multimedia imkoniyatlari bilan boyigan, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qiluvchi kuchli kommunikativ tizimga aylangan. Tadqiqot natijalari hududiy matbuotning funksional xususiyatlari — mahalliy axborotni yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni targ'ib qilish, davlat va jamiyat o'rtasida axborot almashuvini ta'minlash — jurnalistika nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Shu bois hududiy matbuot tarixini o'rganish nafaqat o'tgan davrlarni tahlil qilish, balki bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mahalliy kommunikatsiya tizimlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: hududiy matbuot; jadidchilik; sovet davri; mustaqillik; raqamli transformatsiya; jurnalistika; kommunikatsiya.

Аннотация. В статье рассматривается историческое развитие региональной прессы Узбекистана начиная с периода джадидизма и заканчивая современным этапом цифровой трансформации. Региональные газеты и журналы занимают особое место в социально-политической жизни общества, так как они выражают интересы местного населения, освещают актуальные проблемы и служат эффективным инструментом коммуникации между государственными органами и гражданами. Автор выделяет четыре ключевых этапа в развитии региональной прессы: джадидский период, советский период, годы независимости и современную цифровую эпоху. В эпоху джадидизма печать стала важным фактором национального пробуждения и просвещения. Советская пресса, напротив, находилась под жёстким идеологическим контролем, выполняя функции пропаганды. После обретения независимости СМИ получили большую свободу и стали отражением демократических ценностей, национальной идеологии и культурно-просветительских процессов. В XXI веке формирование интернет-журналистики и социальных сетей

радикально изменило характер региональных медиа, сделав их более оперативными, интерактивными и мультимедийными. Результаты исследования показывают, что функциональные особенности региональной прессы — распространение местной информации, формирование общественного мнения, сохранение культурных ценностей и обеспечение диалога между обществом и властью — имеют важное научное и практическое значение.

Ключевые слова: региональная пресса; джадидизм; советский период; независимость; цифровая трансформация; журналистика; коммуникация.

Kirish

Hududiy matbuot jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim kommunikativ tizim sifatida shakllanib, davlat va jamiyat o'rtasidagi axborot almashinuvining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida hududiy matbuot nafaqat mahalliy yangiliklarni yorituvchi vosita, balki fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida dolzarblilik kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda hududiy ommaviy axborot vositalarining faoliyati davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanib, ularning huquqiy maqomini mustahkamlovchi hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar joriy etilishi, internet portallar, onlayn nashrlar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi mahalliy jurnalistikaning yangi shakl va mazmun jihatdan yangilanishiga olib keldi. Mazkur jarayon hududiy matbuotning zamonaviy kommunikatsiya tizimlarida tutgan o'rni va funksional xususiyatlarini qayta tahlil qilish zaruratini tug'diradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, avvalgi tadqiqotlar (Hodjayeva 2020; Abduqodirov 2008; Qosimov 2019; Xudoyberdiyeva 2015) asosan o'zbek matbuoti tarixining umumiy rivojlanish bosqichlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, hududiy OAVning raqamli transformatsiya davridagi yangi funksional imkoniyatlari va kommunikativ rolini tahlil qilishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishni maqsad qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — o'zbek hududiy matbuotining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonidagi o'zgarishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etishdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Hududiy matbuotning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini aniqlash.
2. Jadidchilik davridan boshlab mustaqillik yillarigacha bo'lgan davr matbuotining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.
3. Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy jurnalistikaning yangi shakllarini — onlayn nashrlar, portallar, bloglar va ijtimoiy tarmoqdagi faoliyatni o'rganish.
4. Zamonaviy hududiy OAVning kommunikativ, madaniy va ijtimoiy funksiyalarini baholash.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda hududiy matbuotning evolyutsiyasi ilk jadid nashrlaridan tortib hozirgi raqamli axborot muhitigacha uzluksiz jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga,

hududiy OAV faoliyati zamonaviy internet platformalari kontekstida tahlil qilinadi va bu jarayonning ijtimoiy-kommunikativ ahamiyati yoritiladi.

Tadqiqotning materiali sifatida XIX asr oxiridan boshlab nashr etilgan jadid matbuoti (“Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”), sovet davridagi “Qizil O‘zbekiston”, “Turkiston”, mustaqillik yillarida tashkil etilgan “Hurriyat”, “Ma’rifat”, “Jamiyat” kabi gazeta va jurnallar hamda zamonaviy onlayn nashrlar — *Kun.uz*, *Daryo.uz*, *Gazeta.uz* kabi internet portallari tanlab olindi.

Asosiy qism

Hududiy matbuotning hozirgi rivojlanish tendensiyalarini to‘g‘ri talqin qilish uchun uning tarixiy shakllanish jarayonlarini tahlil etish zarur. Tarixiy yondashuv bu sohaning jamiyatdagi funksional o‘zgarishlarini, mafkuraviy ta’sir doirasini va kommunikatsion rolini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, quyida o‘zbek hududiy matbuotining asosiy taraqqiyot bosqichlari izchil tahlil qilinadi.

Hududiy matbuot tarixiy taraqqiyoti bir necha bosqichlardan iborat:

1. Dastlabki davr (XX asr boshlarida hududiy matbuotning shakllanishi, ya’ni jadidlar davri).
2. Sovet davri (1920–1991).
3. Mustaqillik davri (1991-yildan keyingi hududiy matbuotlarda yangilanish jarayoni).
4. Hozirgi davr (raqamli transformatsiya davri bo‘lib, bu davrda hududiy jurnalistikaning internet makoniga kirib borishi) [Qodirov 2019: 45].

Dastlabki davr — XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda milliy matbuotni shakllantirish masalalari bilan ham shug‘ullandilar. Bir tomondan, o‘zbek jadidchilik harakatiga oziq bergan kuchlar millatning o‘tmishida yashab o‘tgan buyuk alloma va mutafakkirlar bo‘lib, ularning ma’naviy-ilmiy merosini o‘rganish orqali xalqimiz qanchalik yuksaklikka erishgani, jadidlar ham o‘tmish ma’naviyatini bilish va uning ayrim muammoli o‘rinlarini isloh qilish yo‘lidan borganlari ma’lum. Isloh qilish uchun esa har bir ma’naviy merosning o‘z davri va shu kundagi ahamiyatini belgilash, uning kelajakka daxldorlik darajasini aniqlash hamda ularni xalqning milliy yuksalishi uchun o‘ziga xos shakllarida yetkazib berish zarur edi [Qosimov 2003: 45].

Bu haqida taniqli fitratshunos olim H. Boltaboyev shunday yozadi: “Turkiston tarixiga olamshumul o‘zgarishlarning muallifi sifatida kirgan jadidchilik nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevroosiyoda ham ahamiyatli iz qoldirgani uchun u jahon afkori ilmiyasi tomonidan e’tibor bilan o‘rganilmoqda. Jadidchilik o‘z xalqini ozod va yurtini obod ko‘rish shiorini o‘rtaga qo‘yish barobarida uning oliy pirovard niyati xalqning o‘z shonli tarixi, madaniyati bilan jahon afkori umumiyasiga tanitishni istadi. Shuning uchun ham jahonni titratgan Temur qilichining zarblari va jahon adabiyotida yangi sahifa yaratgan Navoiy qalami jadidchilar uchun zamon timsoliga aylandi. O‘tmishni ideallashtirish orqasida yangi va yuksak jamiyat yaratib bo‘lmastligini yaxshi anglagan jadidchilar o‘tmish merosini

o'zlashtirish barobarida jahonning eng taraqqiy etgan millatlari sifatida o'zini ko'rishni istadi. Biroq bu ildizlardan yaralgan daraxt quyoshga bo'y cho'zib, imon, milliy shuur va istiqloq kurtaklarini chiqargunga qadar mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi va ko'p qurbonlar bo'ldi [Boltaboyev 1998: 151].

Bizningcha, jadidchilik Turkiston tarixida milliy uyg'onish davrining poydevori bo'lib xizmat qilgan. Jadidlar yangi usul maktablarini ochish, gazeta va jurnallar chiqarish, sahna san'ati, publitsistika va ijtimoiy faoliyat orqali xalqni ma'rifatga, zamonaviy bilim va tafakkur sari yetakladilar. Shu jihatdan ular o'z davrining nafaqat madaniy-ma'rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy yangilanishining bosh tashabbuskori bo'ldilar. Boltaboyev qayd etganidek, jadidlarning mafkuraviy timsollari tarixiy ramzlar — Amir Temurning jasorati va Alisher Navoiy ma'naviy merosi bilan chambarchas bog'liq edi. Bu esa ularga milliy o'zlikni anglash va xalqni birlashtirishda kuchli ruhiy tayanch vazifasini o'taydi. Temur obrazida ular jasorat va mustaqillik g'oyasini, Navoiy timsolida esa ma'naviy barkamollik va ilm-fanni ulug'lashni ko'rdilar.

“Jadidchilik harakati Turkistonga Rossiya istilosi tufayli kirib kelgan temir yo'l, matbaa va matbuot imkoniyatlaridan ham foydalanishga harakat qildi. Garchi rus oxrankasi jiddiy qarshilik ko'rsatganiga qaramay, *“Turkestanskije vedomosti”*ning turkcha (N. Ostroumov ta'biricha, “sartcha”) ilovasi bo'lgan *“Turkiston viloyatining gazetasi”*da Furqat Sattorxon kabi o'zbek shoir va ziyolilarining maqolalari ham e'lon qilindi. F. Sattorxonning bir qator asarlarida sud va davlat tuzilishi, poraxo'rlik, mahalliychilik, ichki nizolarni yo'qotish kabi xilma-xil masalalar yuzasidan bildirgan fikrlari hanuz o'z qimmatini yo'qotmagan. Sattorxon rus fani va madaniyatining dastlabki targ'ibotchilaridan biri sifatida maydonga chiqdi. U *“Turkiston viloyatining gazetasi”*da e'lon qilgan maqolalarining birida (1890-yil 14-may sonida) bunday deb yozgan edi: “Biz rus xalqi yordamida Ovro'pa xalqlari bilan aloqa o'rnatishimiz mumkin, buning natijasida biz umumbashariy hayot va ilmiy taraqqiyotning ishtirokchilariga aylanamiz” [Sharipov 1997: 180].

Furqatning ushbu qarashi uning ma'rifatparvarlik dunyoqarashini yaqqol ifodalaydi. U o'z davrida O'zbekiston va butun Turkiston jamiyatini jahondagi ilmiy va madaniy taraqqiyotdan orqada qolmaslikka, yangi bilim va tajribalarni o'zlashtirishga chorlaydi. Bu esa xalqni izolyatsiyadan chiqishga, dunyoga ochilish va global ilmiy-madaniy almashinuvning faol ishtirokchisiga aylanishga chaqiruvchi strategik fikrlardan biri edi.

1906-yil 27-iyunda Turkistonda birinchi jadid matbuotining qaldirg'ochi bo'lgan *“Taraqqiy”* (Ismoil Obidiy muharrirligida) gazetasi chiqarila boshlaydi. Gazetaning 20-soni dunyo yuzini ko'rganidan keyin chor hukumati tomonidan yopiladi [O'zbek sovet ensiklopediyasi. 4-jild. 1973: 278]. *“Taraqqiy”*ning qisqa faoliyati davomida ham xalqni zamonaviy bilimga, ijtimoiy-siyosiy ongga chorlagan, milliy o'zlikni tiklashga xizmat qilgan maqolalar chop etilgani uni jadid matbuotining ilk namunalari qatoriga qo'shadi. Ushbu gazeta qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, xalqni uyg'otishga, mustamlaka zulmiga qarshi fikriy kurash olib borishga xizmat qilgan, o'zbek milliy matbuotining tarixiy taraqqiyotida alohida o'rin egallagan nashrdir.

1907-yil 1-dekabrda Abdulla Avloniyning “*Shuhrat*” gazetasi chiqa boshlaydi. Haftada 2 marta chiqadigan gazeta bo‘lib, sahifalarida xurofotda qarshi maqolalar chop etilgan. Zamona talabiga javob beradigan kadrlar tayyorlash kerakligini targ‘ib qilgan. Gazetada rasmiy muharrir Abdulla Avloniy deb yozilsa-da, ammo amalda unga Munavvarqori Abdurashidxon rahbarlik qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Tursunxo‘ja Homidxo‘ja o‘g‘li va shoir Miskin Toshkandiylar gazetaning asosiy mualliflari sanalgan [<https://uzpedia.uz/pedia/shuhrat>]. “*Shuhratning*” asosiy maqsadi — zamonaviy ta‘lim, yangicha fikrlovchi kadrlar tayyorlash va millatni uyg‘otish edi.

1912-yildan Buxoroda “*Buxoroi sharif*” nashr qilina boshladi. Fors tilida chiqa boshlagan bu gazetaning Markaziy Osiyoning tubjoy aholisi bo‘lgan turklar tilida emas, Navoiy sari tili deb atagan forsiyda chiqishi nafaqat turkistonliklarni o‘ylatib qo‘ydi. “*Buxoroi sharif*” gazetasiga ilova tarzida eski o‘zbek turkiy tilida “*Turon*” ilovasining nashr etilishi yo‘lga qo‘yildi [URL: <https://uzpedia.uz/25.08.2025>]. “*Buxoroi sharif*” gazetasi va “*Turon*” ilovasi O‘zbekistonda milliy matbuot taraqqiyotining muhim bosqichi, jadidchilik harakatining ideologik quroli hamda til siyosati masalasida milliy uyg‘onish jarayonining yorqin ifodasi sifatida tarixda munosib o‘rin egallab kelmoqda.

1913-yilning 15-aprelidan chiqa boshlagan “*Samarqand*” gazetasiga mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy mas‘ul muharrir etib tayinlanadi. O‘zbek, fors va rus tillaridagi maqolalar e‘lon qilingan bu gazeta sahifalarida Mirzohid Miroqilov, Akobir Mansur, Hoji Muin kabi jadid ziyolilarning asarlari ham joy olgan edi. Olti yuzga yaqin nusxada tarqalgan bu gazetaning 45-soni chiqqanidan keyin mablag‘ tanqisligi sababli yopiladi. 1913-yil 20-avgustdan e‘tiboran esa Behbudiy o‘zining “*Oyna*” jurnalini chiqara boshlaydi. Uning sahifalarida Munavvar qori, Mahmud Sattor, Akobir Mansurlarning bir qator maqolalari o‘rin egallagan bo‘lib, jurnal “*Millat, islomiyai saodat*” shiorini ko‘targan edi. Ammo “*Oyna*” jurnali ham 136-soni e‘lon qilinganidan keyin 1915-yil 15-iyunda yopiladi [Abduazizova 2000: 86].

“*Samarqand*” gazetasi jadid matbuotining yirik namoyandalaridan biri sifatida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida alohida o‘rin egallagan. Mazkur nashr nafaqat mahalliy aholi uchun ma‘rifat va yangicha qarashlarni targ‘ib etgan, balki xalqni taraqqiyotga, islohotlar yo‘liga undagan ma‘naviy-ma‘rifiy maktab vazifasini ham bajargan. Gazetada jadid ziyolilarining maqola va she‘rlari muntazam chop etilib, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish, milliy uyg‘onish jarayonini tezlashtirish maqsad qilingan. Garchi moddiy qiyinchilik sabab qisqa muddat nashr etilgan bo‘lsa-da, “*Samarqand*” gazetasi o‘zbek jurnalistikasi tarixida muhim iz qoldirgan. U orqali jadidlarning ilg‘or g‘oyalari keng ommaga yoyilgan, matbuotning xalq hayotidagi o‘rni va ta‘siri mustahkamlangan. Keyinchalik uning davomchisi sifatida paydo bo‘lgan “*Oyna*” jurnali esa jadidchilik harakatining yangi bosqichini boshlab bergan.

1914-yildan nashr etila boshlagan “*Sadoi Turkiston*” jadidchilik tarixida chuqur iz qoldirgan yana bir nashrlardandir. Uning bosh muharriri Ubaydullaxo‘ja Asatillaxo‘jaev bo‘lib, gazeta ishlariga Munavvar qori va

Abduraufzodalar yaqindan yordam berishgan. “*Sadoi Turkiston*” bilan deyarli ketma-ket nashrga chiqqan “*Sadoi Farg‘ona*” gazetasining ishiga Obidjon Mahmudiy muharrirlik qilgan. “Professor B. Qosimov 1917-yil fevral voqealaridan so‘ng nashrdan chiqqan gazetalar haqida fikr bildirib, shunday yozadi: 1917-yilning fevralidan keyin “Najot” (Munavvar qori), “Sho‘roi islom” (A. Battol), “Turon” (Avloniy), “Hurriyat” (Fitrat), “Kengash” (Zaki Validiy), “El bayrog‘i” (B.Soliev, A. Zohiriy), “Ulug‘ Turkiston” (K. Bakir) kabi ko‘plab gazetalar chiqdi [Qosimov 2002: 63]. Bular orasida Samarqandda nashr etilgan “Hurriyat” gazetasi sahifalarida yuzlab, minglab maqola va xabarlar, she‘r va hikoyalar chop etildiki, bu hol jadid adabiyotining taraqqiyotiga xizmat qilgan asosiy omillardan biri jadid matbuoti degan da‘voni tasdiqlaydi.

Turkiston jadid matbuoti tarixi haqida ham maqola va tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Dastlab Cho‘lpon “Turkistonda matbuot” maqolasi bilan chiqdi [Cho‘lpon 1998: 45]. So‘ngra “Abdulla Avloniy 1905–1917-yillarda chop qilingan nashrlarni umumlashtirib, “Burungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasini yozdi [Qosimov 2002: 58]. Jadid matbuoti tarixiga nazar tashlaganda, shunga amin bo‘lamizki, haqiqatan ham jadidchilar tomonidan amalga oshirilgan nashrlar millatning uyg‘onishiga sabab bo‘ldi, ikkinchidan, deyarli barcha jadidchilik harakatining rahbarlari matbuotchilik ishiga faol qatnashib, o‘zlarining maqola va badiiy asarlarining ommaga yetib borishi uchun qulay bo‘lgan usul va yo‘l topdi.

Vaqtli matbuot tarixida nashr etilgan gazeta va jurnallarning o‘z davrida millatimizga qay darajada xizmat qilganini sho‘rolar hokimiyati sharoitida haqqoniy va xolisona baholagan ish sifatida ham qimmatlidir. Toshkent va Buxoroda bu vaqtga kelib musulmon matbaa (bosmaxona)lari ham faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Toshkentlik boylardan Fulom Hasan Orifjonov matbaasida bir qator fors va o‘zbek tillaridagi asarlar litografiya usulida chop etila boshlandi. Toshkentdagi Porsov va Buxorodagi Livnin matbaalari tarix va adabiyotga oid bir qator asarlarni, jumladan, Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini, Ahmad Yassaviyning “Devon”ini, “Abo Muslim rivoyatlari”, “Temurnoma”, “Shohnoma” kabi asarlarni chop etdi. Toshkentda yangi asarlarni nashr etish maqsadida “Turkiston” nomli nashriyot shirkati ham tashkil etildi. Xullas, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining yorqin namoyandalari o‘zlari uchun keng targ‘ibot maydoniga aylangan milliy matbuotning shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Sovet davrida — matbuot siyosiy tizimning asosiy targ‘ibot va tashviqot quroliga aylangan. U “partiyaviylik” tamoyili asosida faoliyat yuritib, jamiyat hayotining barcha sohalarini kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan yoritishga xizmat qilgan. 1920–1930-yillarda Turkiston hududida sovet hokimiyatini mustahkamlash, jadid matbuotini bostirish jarayoni kechdi. “Qizil O‘zbekiston”, “Turkiston”, “Yosh leninchi” kabi gazeta va jurnallar chiqdi. Asosiy vazifa — sovet mafkurasini singdirish, kollektivlashtirish va industrializatsiya siyosatini targ‘ib qilish edi [Хоруженко 1991: 96]

Shunday qilib, 1920–1930-yillarda jadid matbuotining bostirilishi o‘zbek jurnalistikasi va umuman milliy uyg‘onish harakatiga katta zarba berdi. Shu bilan birga, jadidlarning ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini xalq

ongida yashab qolib, keying davrlarda milliy o'zlikni anglash va mustaqillik g'oyalariga zamin yaratdi. "1940–1950-yillar Ikkinchi jahon urushi yillarida matbuot frontdagi jangchilarning jasorati, orqadagi mehnatkashlarning fidoyiligini yoritdi. Shu davrda senzura yanada kuchaydi. Har qanday "xalq dushmanligi"ga oid gumonlar matbuotda fosh etilib, mafkura vositasi sifatida qat'iy nazorat ostida bo'ldi [Политическая история СССР. 1988: 215]. O'sha yillarda sovet matbuoti bir tomondan xalqni urush g'alabasi uchun birlashtirishda muhim ijtimoiy vazifani bajarishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mafkuraviy nazorat va senzura tufayli erkin jurnalistik taraqqiyot imkoniyatlarini keskin cheklab qo'ydi.

1960–1970-yillar Sovet matbuotida nisbatan yumshash jarayonlari kuzatildi. Xrushchov davridagi "erkinlashuv" davrida ayrim ijtimoiy masalalar muhokama qilina boshlandi. "Sharq yulduzi", "Guliston" kabi jurnallarda adabiy-badiiy asarlar chop etilib, yozuvchilar jamiyat muammolarini ramziy tarzda ifodalashga urindilar. Biroq partiyaviylik tamoyili baribir hukmron bo'lib qoldi [Qosimov 1999: 176].

Bu yillar oralig'ida matbuotda nisbiy yumshash kuzatilgan bo'lsa-da, u jamiyatni erkin fikrga emas, balki kommunistik mafkurani mustahkamlashga xizmat qilgan deyish mumkin. 1980–1991-yilgacha Gorbachov davridagi "qayta qurish" va "oshkoralik" siyosati matbuot erkinligiga yo'l ochdi. Ijtimoiy-siyosiy muammolar, milliy masalalar ochiq muhokama qilina boshladi. Mustaqillik arafasida matbuot jamiyatdagi siyosiy uyg'onish va milliy istiqlol g'oyalarini yoritishda muhim o'rin tutdi [Ochilov 2010: 208].

Fikrimizcha, oshkoralik davrida sovet matbuoti jamiyatning siyosiy ongini o'zgartirish, milliy o'zlikni anglash va istiqlol g'oyalarini yoyishda muhim omilga aylandi. Bu jarayon matbuotni mustaqillik arafasida siyosiy uyg'onishning yetakchi minbariga aylantirdi. Sovet matbuoti bir tomondan jamiyatni safarbar etish, axborot tarqatish va madaniy-ma'rifiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi tomondan mafkuraviy cheklovlar va senzura tufayli erkin jurnalistikaning rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Shu bois uning tarixiy tajribasi o'zbek matbuoti taraqqiyoti uchun saboq bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik davri — "O'zbekiston mustaqillikka erishgach, matbuot taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Bu davrda matbuot davlat nazoratidan asta-sekin chiqib, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolarni erkinroq yoritish imkoniyatiga ega bo'ldi [Abduqodirov 2008: 210]. Mustaqillik davri matbuoti nafaqat axborot manbai, balki demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, milliy mafkura va ma'naviy-ma'rifiy yangilanishni ta'minlashda muhim ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. 1990-yillarda yangi gazeta va jurnallar — "Hurriyat", "O'zbekiston ovozi", "Ma'rifat", "Tafakkur", "Yoshlik", "Mohiyat", "Jamiyat" kabi nashrlar tashkil etildi [Qo'chqorov 2001: 134]. Yangi nashrlarning paydo bo'lishi mustaqillik davri matbuotining mazmun va shakl jihatdan yangilanishini ta'minladi hamda ommaviy axborot tizimida ilmiy-nazariy jihatdan ham alohida o'rin egalladi.

1997-yilda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, matbuotning huquqiy asoslari mustahkamlandi [O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonun hujjatlari 1997: 20]. Mazkur qonun matbuotning huquqiy maqomini belgilash, jurnalistlarning kasbiy

faoliyatini himoya qilish va axborot erkinligini ta'minlash yo'lida ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan huquqiy baza yaratdi. Shu tariqa ushbu hujjat mustaqillik davri matbuotining demokratik rivojlanishi va jamiyatda erkin axborot makonini shakllantirishga xizmat qiluvchi fundamental poydevor sifatida namoyon bo'ldi. Mustaqillik yillarida davlat tili maqomidagi o'zbek tilining matbuotdagi mavqei kuchaydi [Xudoyberdiyeva 2005: 87]. O'zbek tilining matbuotdagi mavqeining yuksalishi nafaqat lingvistik jarayon, balki ilmiy-nazariy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etuvchi hodisa sifatida qaraladi.

2000-yillardan boshlab internet jurnalistikasi shakllandi, elektron nashrlar va onlayn axborot portallari faoliyat yurita boshladi [Karimova 2012: 45]. Ushbu jarayon ommaviy axborot vositalarining tezkorlik, interaktivlik va global axborot makoniga integratsiyalashuv darajasini oshirdi. Internet jurnalistikasi orqali jamoatchilikka tezkor, ko'p qirrali va xilma-xil manbalardan olingan axborot taqdim etilishi natijasida jamiyatda axborot madaniyati yuksaltirishga xizmat qildi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar asosida shakllangan yangi axborot muhiti nafaqat kommunikativ imkoniyatlarni kengaytirdi, balki ilmiy-nazariy jihatdan ham OAVning evolyutsion taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri sanaldi. Keyinchalik ijtimoiy tarmoqlar ham axborot tarqatishning muhim vositasiga aylandi.

Hozirgi davr matbuoti — bugungi kunda faoliyat yuritayotgan gazeta va jurnallar, televideniye, radio, internet nashrlari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan axborot vositalari tushuniladi [Karimova 2012: 150]. Buning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etish joiz:

Raqamli jurnalistika — bosma matbuot bilan bir qatorda onlayn nashrlar, axborot portallari, bloglar va internet gazetalar keng yoyildi [Pavlik 2020: 215]. Raqamli jurnalistika — bu an'anaviy bosma ommaviy axborot vositalaridan farqli ravishda internet texnologiyalariga asoslangan, onlayn nashrlar, axborot portallari, bloglar hamda ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshiriladigan jurnalistik faoliyat shaklidir. Ushbu jurnalistika turi raqamli platformalar imkoniyatlaridan foydalangan holda yangiliklarni tezkor tarqatish, multimedia formatlarida taqdim etish va auditoriya bilan interaktiv muloqot o'rnatishga yo'naltirilgan bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **Gazetalarning onlayn shaklda ekanligi.** Masalan, "Xalq so'zi" gazetasining rasmiy sayti — xs.uz. "O'zbekiston ovozi" va "Yangi O'zbekiston" gazetalarining elektron nashrlari ham faoliyat yuritmoqda. Bu gazetalarda chop etiladigan maqolalar bilan birga qo'shimcha onlayn kontent, fotogalereyalar va videolar ham berilishi shular jumlasidandir.

- **Axborot portallari.** Gazeta.uz — O'zbekistondagi eng mashhur mustaqil internet-nashrlardan biri bo'lib, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yangiliklarni tezkorlik bilan yoritadi. Daryo.uz — keng auditoriyaga ega bo'lgan portal, unda yangiliklar bilan bir qatorda blogpostlar, intervyular va fotoreportajlar ham beriladi. Kun.uz — ijtimoiy-siyosiy mavzularda faol axborot manbasi sifatida tanilgan.

- **Bloglar va muqobil manbalar.** Telegram-kanallar — "Kun.uz Live", "Gazeta.uz", "Daryo" kabi axborot kanallari yuz minglab obunachilarga ega. Shaxsiy bloglar — ayrim jurnalistlar (masalan, Nigora

Hidoyatova, Sherzodbek Karimov va boshqalar) ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z jurnalistik bloglarini yuritadilar.

Multimedia imkoniyatlari. Internet nashrlarda faqat matn emas, balki video, podkast, infografika keng qo'llanilmoqda. Masalan, Spot.uz iqtisodiy mavzularda infografikalar tayyorlasa, Gazeta.uz esa audio-podkastlar berib borishi bilan farq qiladi. Raqamli jurnalistika O'zbekistonda bosma matbuotga qo'shimcha ravishda keng rivojlanib, bugungi kunda asosiy axborot manbalaridan biriga aylanmoqda. U nafaqat matnli materiallarni, balki multimedia formatini ham o'z ichiga olib, tezkorlik va interfaollikni ta'minlamoqda. Shu o'rinda interfaollik yuzasidan fikr-mulohazalarni bildirishni maqsadga muvofiq deb bildik. *Interfaollik* — global tarmoq foydalanuvchilari va internetdagi platformalar o'rtasidagi jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsata olishni anglatadi (izoh, fikr-mulohaza, repost va h.k.). Demak, interfaollik — bu jurnalistika va ommaviy axborot vositalarida foydalanuvchi, tinglovchi yoki maqsadli auditoriyaning axborot jarayonida bevosita ishtirok etishi va ta'sir ko'rsatish imkoniyatidir. Ya'ni auditoriya faqat tayyor ma'lumotni qabul qilibgina qolmay, balki fikr bildiradi, savol beradi, munozarada qatnashadi va axborotni tarqatishda ishtirok etadi [To'laganova 2021: 118]. Jurnalistika bir yoqlama axborot uzatish vositasidan ikki tomonlama muloqot maydoniga aylandi. Bu holat jamoatchilik fikrini shakllantirish, fuqarolik faolligini oshirish va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, internet nashrlarida maqolalar ostida izoh qoldirish, jurnalist bilan onlayn muloqot qilish imkoniyati mavjud (Gazeta.uz, Kun.uz). Ijtimoiy tarmoqlarda esa foydalanuvchilar yangilikka "layk" bosadi, izoh qoldiradi yoki do'stlariga ulashadi. Televideniye va radioda esa auditoriya jonli efirda SMS, telefon qo'ng'iroqlari yoki onlayn ovoz berish orqali jarayonga qo'shilishi mumkin [Pavlik 2020: 316]. Bu jarayon nafaqat auditoriyaning axborot iste'molchisi, balki faol ishtirokchisi sifatida ommaviy kommunikatsiyada ikki tomonlama muloqotni kuchaytiradi. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu ommaviy axborot vositalarining demokratik jamiyatda jamoatchilik bilan aloqani mustahkamlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan interfaollikdan tashqari axborot oqimining ko'pligi ham dolzarb masalalardan biri sanaladi. Masalan, internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli yangiliklar soni keskin oshgan, bu esa tezkorlik va faktlarning ishonchliligini talab etmoqda [Qosimov 2019: 276]. Bugungi davrda internet va ijtimoiy tarmoqlar sababli axborot oqimi mislsiz darajada kuchaydi. Har bir foydalanuvchi nafaqat iste'molchi, balki axborot tarqatuvchi (produser)ga aylangan. Natijada yangiliklar soni keskin ortdi, xabarlar tezkor kirish imkoniyati kengaydi. Biroq axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi *muayyan muammolarni* ham yuzaga keltirmoqda:

- *tezkorlik talabi* — jurnalistlar va OAV tez xabar berishga intilishi sababli ba'zan muayyan xatolik yoki tekshirilmagan ma'lumotlarning tarqalishiga olib kelishi mumkin;
- *faktlarning ishonchliligi* — yangiliklarning haddan ziyod ortishi feyk xabarlar va manipulyativ kontentni ajratishda tobora murakkablik tug'dirmoqda;

- *axborot tanlash muammosi* — auditoriya ko'plab manbalar ichidan ishonchli va zarur axborotni ajratib olish qobiliyatini rivojlantirishga majbur. Shu nuqtada mediasavodxonlik katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ilmiy doiralarda axborot oqimini boshqarish, tekshirish va tartibga solish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari esa tezkorlik bilan bir qatorda faktcheking (faktlarni tekshirish) jarayoniga ham e'tibor qaratishi zarur.

Matbuot erkinligi va mas'uliyati hozirgi davr jurnalistikasining eng muhim tamoyillaridan biri. So'z erkinligi orqali OAV jamiyatdagi turli muammolarni ochiq yoritishi, tanqidiy fikrlarni bildirish va jamoatchilikni xabardor qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Biroq bu erkinlik cheksiz emas: axborot tarqatishda haqqoniylik, faktlarga asoslanish, shaxsiy hayot daxlsizligi va jamiyat manfaatlarini hurmat qilish talab etiladi. Jurnalist mas'uliyati — bu nafaqat qonuniy majburiyat, balki kasbiy etika tamoyillariga rioya qilishni ham anglatadi. Bugungi global axborot makonida feyk xabarlar va manipulyatsiyalar ko'paygani uchun jurnalistlarning axborotni tekshirish, obyektivlikni saqlash va ishonchli manbalarga tayangan holda ishlashi dolzarb masalaga aylanib bordi.

Til va uslub xilma-xilligida o'zbek tili yetakchi o'rinda bo'lsa-da, ruscha, inglizcha va boshqa tillardagi materiallar ham uchraydi. Til va uslub xilma-xilligi hozirgi davr matbuotining muhim xususiyatlaridan biri. O'zbek tili davlat tili sifatida yetakchi o'rinda turadi va aksariyat gazeta, jurnal hamda onlayn nashrlar o'zbek tilida chop etiladi [To'laganova 2008: 165]. Biroq ko'p millatli jamiyat sharoitida rus tili ham keng qo'llanadi, ayniqsa, respublika va xalqaro auditoriyaga mo'ljallangan nashrlarda ruscha materiallar ham muntazam berib boriladi. Shuningdek, ingliz tilida faoliyat yurituvchi axborot resurslari, xorijiy auditoriyani qamrab olishga xizmat qiluvchi saytlar va jurnalistik loyihalar ham shakllangan. Bunday til va uslub xilma-xilligi O'zbekiston matbuotini nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham o'quvchilarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri haqida fikr yuritsak, bugungi kunda Facebook, Telegram, Instagram, X (Twitter) kabi platformalar axborot tarqatishda muqobil manba sifatida faol ishlatilmoqda [Pavlik 2020: 265]. Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri hozirgi davr matbuotida sezilarli darajada kuchaydi. Chunki Facebook, Telegram, Instagram, X (Twitter) kabi platformalar axborot tarqatishda an'anaviy OAVga muqobil manba sifatida faol ishlatilib kelinmoqda. Bu platformalar orqali xabarlar tezkor tarqaladi va keng auditoriyaga qisqa fursatlarda yetib boradi. Shuningdek, ular odamlarning faqat iste'molchi emas, balki axborot yaratuvchi va tarqatuvchi sifatida ham qatnashishini ta'minlaydi. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda tekshirilmagan, yolg'on yoki manipulyativ ma'lumotlarning tarqalishi jurnalistika oldida yangi mas'uliyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bugungi davr matbuoti tezkor, interaktiv va global tusga ega. U jamoatchilik fikrini shakllantirish, axborot almashinuvi va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, feyk xabarlar, axborot ishonchliligi va jurnalistik etikaning saqlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Hozirgi davr matbuoti nafaqat axborot tarqatuvchi vosita, balki ijtimoiy ong va demokratik qadriyatlarni rivojlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hududiy matbuotning funksional xususiyatlari viloyat, tuman va shahar miqyosida faoliyat yurituvchi gazeta, jurnal va axborot nashrlari faoliyati bilan bog'liq. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. *Mahalliy axborot yetkazish* — hududiy matbuot o'z hududiga oid yangiliklar, voqealar va dolzarb masalalarni yoritadi. Shu orqali aholining hududiy hayotdan xabardorligini oshiradi. Jamiyatdagi muammolar va ularning yechimi yuzasidan jamoatchilik fikri shakllanadi. Hududiy matbuot shu tarzda fuqarolarning hududiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga turtki bo'ladi [Xudoyberdiyeva 2015: 45].

2. *Mahalliy manfaatlarni ifodalash* — viloyat va tuman miqyosidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy manfaatlarni himoya qiladi, ularni keng jamoatchilikka yetkazadi [G'ulomov 2010: 163]. Hududiy matbuot mahalliy ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida aholining hududiy voqealardan xabardor bo'lishi, o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. U nafaqat axborot yetkazuvchi, balki jamiyat va davlat o'rtasida vositachilik qiluvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi hamda hududiy taraqqiyotga hissa qo'shuvchi muhim institutdir. Shu jihatdan hududiy matbuotning funksional faoliyati ilmiy jihatdan ijtimoiy kommunikatsiya tizimining tarkibiy elementi sifatida o'rganilishi bejiz emas.

3. *Jamoatchilik fikrini shakllantirish* — mahalliy masalalar bo'yicha fuqarolarning qarashlari, mulohazalari va takliflarini shakllantirish hamda muhokama qilishga yordam beradi. Shu orqali aholining ijtimoiy faolligi oshadi, mahalliy muammolarni hal qilish jarayonida fuqarolarning ishtiroki ta'minlanadi. Natijada hududiy matbuot jamiyat va davlat o'rtasidagi kommunikativ ko'priki sifatida jamoatchilik fikrining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4. *Madaniy-ma'rifiy vazifa* — hududiy matbuot o'z hududidagi milliy qadriyatlar, urf-odatlar, san'at va madaniyatni targ'ib qiladi, yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. U aholining ma'naviy saviyasini oshirish, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Natijada madaniy-ma'rifiy jarayonlar rivojlanib, hududiy o'ziga xoslikning saqlanishi va mustahkamlanishiga hissa qo'shadi.

5. *Axborot almashuvini ta'minlash* — markaziy va mahalliy hokimiyat, tashkilotlar hamda aholining o'zaro muloqotini yo'lga qo'yadi (<https://lex.uz/docs/-53543>). Matbuot orqali hukumat qarorlari, islohotlar va turli tashabbuslar aholiga yetkaziladi, shu bilan birga fuqarolarning fikr-mulohazalari va takliflari ham tegishli idoralarga yetib boradi. Bu jarayon hududiy boshqaruv tizimining ochiqligi va shaffofligini ta'minlab, davlat bilan jamiyat o'rtasidagi kommunikatsion ko'priki vazifasini bajaradi.

6. *Demokratik jarayonlarda ishtirok* — fuqarolarning faolligini oshirish, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini kuzatish va nazorat qilish imkonini beradi. Matbuot orqali aholining mahalliy muammolarga befarq bo'lmasligi, o'z fikrini bildirish hamda qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishi ta'minlanadi. Shu tariqa, hududiy matbuot demokratik qadriyatlarning qaror topishida, ochiqlik va shaffoflikni rivojlantirishda muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'zbek hududiy matbuotining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari mamlakatimiz jurnalistikasi tarixida uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Jadidchilik davrida bu nashrlar milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini yoyish vositasi bo'lgan bo'lsa, sovet davrida ular mafkuraviy nazorat ostida faoliyat yuritgan. Mustaqillik yillarida esa matbuot huquqiy asoslarini mustahkamlash, demokratik qadriyatlar va so'z erkinligini qaror toptirish yo'lida yangi bosqichga ko'tarildi.

Bugungi kunda hududiy OAV raqamli transformatsiya sharoitida nafaqat axborot yetkazuvchi, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, jamoatchilik fikrini yo'naltiruvchi hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantiruvchi muhim kommunikativ institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Raqamli jurnalistika, onlayn nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar va blog platformalarining joriy etilishi natijasida hududiy matbuot tezkorlik, interfaollik, ochiqlik va auditoriya bilan ikki tomonlama muloqot tamoyillariga asoslanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududiy matbuotning samarali rivojlanishi uchun quyidagi yo'nalishlarda izchil ish olib borish zarur:

- raqamli savodxonlik va multimedia jurnalistikasi ko'nikmalarini oshirish;
- mahalliy OAV uchun texnik va moliyaviy mustaqillikni ta'minlash;
- onlayn platformalarda faktcheking, etik me'yorlar va axborot ishonchliligini kuchaytirish;
- hududiy matbuotning ta'sirini baholovchi ilmiy tadqiqotlar sonini ko'paytirish.

Kelgusidagi tadqiqotlar hududiy OAVning raqamli muhitdagi iqtisodiy modeli, sun'iy intellekt texnologiyalarining jurnalistikaga integratsiyasi, shuningdek, mahalliy axborot iste'moli madaniyati va auditoriya xatti-harakatlarining o'zgarishi yo'nalishlarida davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Hududiy matbuotning tarixiy tajribasi, zamonaviy raqamli imkoniyatlari va ijtimoiy vazifalarini uyg'un holda o'rganish nafaqat jurnalistika nazariyasi, balki mamlakatning kommunikatsion siyosatini takomillashtirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Abduazizova N. A. Turkiston matbuoti tarixi (1870–1917). — Toshkent, 2000. — 238 b.
- Abduqodirov A. O'zbekiston matbuoti tarixi. — Toshkent: Universitet, 2008. — 240 b.
- Boltaboyev H. Jadidchilikning ma'naviy ildizlari // *O'zbekistonning yangi tarixi: konseptual-metodologik muammolar*. — Toshkent: Akademiya, 1998. — 320 b.
- Jadidizm. *O'zbek sovet ensiklopediyasi*. 4-jild. — Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1973. — 576 b.

- Karimova N. Internet jurnalistikasi asoslari. — Toshkent: Universitet, 2012. — 176 b.
- Hodjayeva S. Hududiy OAV faoliyatining ijtimoiy ahamiyati // *Jurnalistika va kommunikatsiya*. — 2020. — № 3. — 128 b.
- Xudoyberdiyeva D. Hududiy matbuot va uning rivojlanish tendensiyalari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2015. — 160 b.
- Xudoyberdiyeva M. O‘zbek tili va matbuot. — Toshkent: Ma’naviyat, 2005. — 192 b.
- Хоруженко И. История советской печати (1917–1991 гг.). — М.: Мысль, 1991. — 384 с.
- Ochilov A. XX asr o‘zbek matbuoti. — Toshkent: Fan, 2010. — 224 b.
- O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Turon (gazeta, Yangi Buxoro)” maqolasi // *Uzpedia.uz*. — 2025. — URL: <https://uzpedia.uz> (murojaat sanasi 14.01.2025).
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonun hujjatlari to‘plami. — 1997. — № 12. — 96 b.
- Pavlik J., McIntosh S. *Converging Media: A New Introduction to Mass Communication*. — 4th ed. — New York: Oxford University Press, 2020. — 512 p.
- Политическая история СССР. — М.: Наука, 1988. — 447 с.
- Qo‘chqorov A. O‘zbek matbuoti va zamon. — Toshkent: Fan, 2001. — 190 b.
- Qodirov M. O‘zbek matbuoti tarixi. — Toshkent: Universitet, 2019. — 210 b.
- Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002. — 224 b.
- Qosimov B. Milliy uyg‘onish va matbuot. — Toshkent: Sharq, 1999. — 180 b.
- Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jadidchilik va matbuot. — Toshkent: Sharq, 2003. — 200 b.
- Qosimov B. O‘zbekiston matbuoti tarixi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019. — 280 b.
- Sharipov R. Turkistonda milliy matbuotning shakllanishi va jadidchilik. — Toshkent: Fan, 1997. — 180 b.
- To‘laganova M. Zamonaviy jurnalistika asoslari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008. — 284 b.
- To‘laganova M. Zamonaviy jurnalistika asoslari. — 2021. — 320 b.
- G‘ulomov A. O‘zbek matbuoti tarixi. — Toshkent: Universitet, 2010. — 256 b.
- Cho‘lpon. Turkistonda matbuot (nashrga tayyorlovchi T. Tog‘ayev) // *Jamiyat va boshqaruv*. — 1998. — № 2. — 160 b.

References

- Abduazizova, N. A. (2000). *Turkiston matbuoti tarixi (1870–1917) (The History of the Press of Turkestan (1870–1917))*, Tashkent, n.p. (In Uzb.)
- Abduqodirov, A. (2008). *O‘zbekiston matbuoti tarixi (The History of the Press of Uzbekistan)*, Tashkent, Universitet. (In Uzb.)

- Boltaboyev, H. (1998). *O'zbekistonning yangi tarixi: konseptual-metodologik muammolar (New History of Uzbekistan: Conceptual and Methodological Issues)*, Tashkent, Akademiya, pp. 1–320. (In Uzb.)
- Jadidizm. (1973). *O'zbek sovet ensiklopediyasi (Uzbek Soviet Encyclopedia)*, Vol. 4, Tashkent, O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. (In Uzb.)
- Karimova, N. (2012). *Internet jurnalistikasi asoslari (Fundamentals of Internet Journalism)*, Tashkent, Universitet. (In Uzb.)
- Hodjayeva, S. (2020). *Jurnalistika va kommunikatsiya (Journalism and Communication)*, No. 3, pp. 1–128. (In Uzb.)
- Khudoyberdiyeva, D. (2015). *Hududiy matbuot va uning rivojlanish tendensiyalari (Regional Press and Its Development Trends)*, Tashkent, O'zbekiston. (In Uzb.)
- Khudoyberdiyeva, M. (2005). *O'zbek tili va matbuot (The Uzbek Language and the Press)*, Tashkent, Ma'naviyat. (In Uzb.)
- Khoruzhenko, I. (1991). *Istoriya sovetsoi pechati (1917–1991 gg.) (History of the Soviet Press (1917–1991))*, Moscow, Mysl. (In Rus.)
- Ochilov, A. (2010). *XX asr o'zbek matbuoti (Uzbek Press of the 20th Century)*, Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*. (2025). “Turon (gazeta, Yangi Buxoro)” maqolasi (“Turon (New Bukhara) Newspaper” article), available at: <https://uzpedia.uz> (accessed 14.01.2025). (In Uzb.)
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonun hujjatlari to'plami (Collection of Legislative Acts of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan)*. (1997). No. 12, pp. 1–96. (In Uzb.)
- Pavlik, J., & McIntosh, S. (2020). *Converging Media: A New Introduction to Mass Communication* (4th ed.), New York, Oxford University Press. (In Eng.)
- Politicheskaya istoriya SSSR (Political History of the USSR)*. (1988). Moscow, Nauka. (In Rus.)
- Qo'chqorov, A. (2001). *O'zbek matbuoti va zamon (Uzbek Press and Time)*, Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Qodirov, M. (2019). *O'zbek matbuoti tarixi (History of the Uzbek Press)*, Tashkent, Universitet. (In Uzb.)
- Qosimov, B. (2002). *Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik (National Awakening: Courage, Enlightenment, Devotion)*, Tashkent, Ma'naviyat. (In Uzb.)
- Qosimov, B. (1999). *Milliy uyg'onish va matbuot (National Awakening and the Press)*, Tashkent, Sharq. (In Uzb.)
- Qosimov, B. (2003). *Milliy uyg'onish: jadidchilik va matbuot (National Awakening: Jadidism and the Press)*, Tashkent, Sharq. (In Uzb.)
- Qosimov, B. (2019). *O'zbekiston matbuoti tarixi (History of the Press of Uzbekistan)*, Tashkent, O'zbekiston. (In Uzb.)
- Sharipov, R. (1997). *Turkistonda milliy matbuotning shakllanishi va jadidchilik (Formation of the National Press and Jadidism in Turkistan)*, Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Tolaganova, M. (2008). *Zamonaviy jurnalistika asoslari (Fundamentals of Modern Journalism)*, Tashkent, Ma'naviyat. (In Uzb.)
- Tolaganova, M. (2021). *Zamonaviy jurnalistika asoslari (Fundamentals of Modern Journalism)*, Tashkent, n.p. (In Uzb.)

- G‘ulomov, A. (2010). *O‘zbek matbuoti tarixi (History of the Uzbek Press)*, Tashkent, Universitet. (In Uzb.)
- Cho‘lpon. (1998). *Jamiyat va boshqaruv (Society and Governance)*, No. 2, pp. 1–160. (In Uzb.)